

MARKAZIY OSIYO MAMALAKATLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TARKIBI TAHLILI

PhD Voxidova Mehri

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ORCID: 0000-0003-0809-0269

mehrivoxidova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligining tarmoq tarkibi, uning tarixiy shakllanish omillari hamda zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston misolida agrar sohaning o'simlikchilik va chorvachilik yo'nalishlari o'rganilgan. Statistik ma'lumotlar asosida ekinlar, chorvachilik mahsulotlari, baliqchilik va o'rmon xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi baholangan. Xususan, suv resurslari tanqisligi, iqlim o'zgarishi, institutsional muammolar agrar sektor barqarorligiga ta'siri chuqur ko'rib chiqilgan. Natijada mintaqa davlatlari uchun diversifikatsiya, innovatsion agrotexnologiyalar va hududiy ixtisoslashuv bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, qishloq xo'jaligi, tarmoq tarkibi, o'simlikchilik, chorvachilik, suv resurslari, diversifikatsiya, oziq-ovqat xavfsizligi.

АНАЛИЗ ОТРАСЛЕВОЙ СТРУКТУРЫ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

PhD Вохидова Мехри

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация. В статье проведён анализ отраслевой структуры сельского хозяйства стран Центральной Азии, её исторических предпосылок и современных направлений развития. На примере Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана рассмотрены основные сферы аграрного сектора — растениеводство и животноводство. На основе статистических данных дана оценка эффективности производства зерновых культур, животноводческой продукции, рыболовства и лесного хозяйства. Особое внимание уделено проблемам дефицита водных ресурсов, изменения климата и институциональных ограничений. В заключение выработаны рекомендации по диверсификации сельского хозяйства, внедрению инновационных агротехнологий и развитию региональной специализации.

Ключевые слова: Центральная Азия, сельское хозяйство, отраслевая структура, растениеводство, животноводство, водные ресурсы, диверсификация, продовольственная безопасность.

ANALYSIS OF THE SECTORAL STRUCTURE OF AGRICULTURE IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

PhD **Voxidova Mehri**

Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract. *This article analyzes the sectoral structure of agriculture in Central Asian countries, highlighting its historical foundations and modern development trends. Using the cases of Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan, the study examines the main agricultural sectors, crop production and livestock farming. Based on statistical data, the paper evaluates the efficiency of grain production, livestock outputs, fisheries, and forestry activities. Special attention is given to the challenges posed by water scarcity, climate change, and institutional constraints affecting agricultural sustainability. The findings suggest that diversification, innovative agro-technologies, and regional specialization are essential for ensuring food security and sustainable development in the region.*

Keywords: *Central Asia, agriculture, sectoral structure, crop production, livestock farming, water resources, diversification, food security.*

Kirish.

Qishloq xo'jaligi sektori Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki iqtisodiyotda barqaror bandlik, eksport salohiyatini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Mintaqadagi barcha davlatlarda qishloq xo'jaligi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarmog'i bo'lib, bu tarmoqning tarkibiy tuzilmasi har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois, mazkur rejada Markaziy Osiyo davlatlarining qishloq xo'jaligi sektori tarmoq tarkibi chuqur tahlil qilinadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston o'zining tabiiy-iqlimiy sharoitlari, yer va suv resurslari, tarixiy ishlab chiqarish an'analari bilan o'ziga xos qishloq xo'jaligi tizimiga ega. Qishloq xo'jaligi, odatda, ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: o'simlikchilik va chorvachilik. Markaziy Osiyoda bu ikki yo'nalish mamlakatlar kesimida turlicha nisbatda rivojlangan. Misol uchun, Qozog'iston keng yaylov yerlariga ega bo'lgani sababli chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lsa, O'zbekiston va Tojikistonning irrigatsiyalashgan yerlarida paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik rivojlangan.

Adabiyotlar sharhi.

Zvi Lerman, o'zining "Structure and Performance of Agriculture in Central Asia" nomli ilmiy maqolasida, Markaziy Osiyoda Qishloq xo'jaligi ko'rsatkichi va tizimlarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, 1991-1992-yillarda Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, Markaziy Osiyoning besh davlati - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshladi. Eng muhim tarkibiy o'zgarishlar aynan qishloq xo'jaligida sodir bo'ldi, bu sohada ilgari hukmronlik qilgan yirik kolxoz va sovxozlar asta-sekin individual va oilaviy fermer xo'jaliklari bilan almashtirildi. Sovet davrida yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 70% dan ortig'i va haydaladigan yerlarning 90% dan ko'prog'i yirik qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan boshqarilgan. Mustaqillikka erishganidan keyin olib borilgan islohotlar natijasida:

- An'anaviy dehqonchilik tomorqalari;
- 1992-yildan keyin paydo bo'lgan yangi fermer xo'jaliklari;
- Sobiq kollektiv mulklardan tashkil etilgan xususiylashtirilgan fermer xo'jaliklari sezilarli darajada ko'paydi. Bu o'zgarishlar yer islohoti va xususiylashtirish siyosati doirasida amalga oshirilib, hosildorlik va shaxsiy manfaatdorlikni oshirishni maqsad qilgan.

Rohne Till (2022) o'z tadqiqotida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ikki tomonlama rolini ta'kidlaydi: birinchidan, u past samaradorlikka ega sektorlardan resurslar va mehnat kuchini yuqori samaradorlikka ega sohalarga o'tkazish orqali strukturaviy o'zgarishlarni rag'batlantiradi; ikkinchidan esa, u o'zining ichki salohiyati orqali iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon, ayniqsa, qishloq hududlarida turmush darajasini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarixiy jihatdan olganda, dastlabki nazariy yondashuvlar qishloq xo'jaligini mehnat kuchini sanoatga o'tkazuvchi passiv omil sifatida ko'rgan bo'lsa, keyingi yillarda bu yondashuv o'zgarib, qishloq xo'jaligi sektori iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateli sifatida talqin etila boshlandi. Johnston va Mellor (1961), shuningdek Jahon Bankining 2008-yildagi hisobotida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat ta'minoti, mehnat bozoriga ta'siri, ichki talabni shakllantirish va eksport salohiyatini kuchaytirishdagi o'rnini alohida ta'kidlangan.

Zamonaviy yondashuvlardan biri bu — “rivojlanish uchun qishloq xo'jaligi” (agriculture-for-development) konsepsiyasi bo'lib, u kichik fermerlar samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy ortiqcha qiymat yaratilishi va umumiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini asoslaydi. Bu yondashuvga ko'ra, qishloq xo'jaligining ichki tuzilmasi — ya'ni o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari, agrotexnologiyalar, suv resurslaridan foydalanish tizimi va ishlab chiqarish zanjiri muhim o'rin tutadi (Diao, Xinshen & Hazell, Peter & Thurlow, James, 2010). Shu bilan birga, sektorning vertikal va gorizontaal integratsiyasi, ya'ni qayta ishlash va bozorlarga chiqish mexanizmlari ham uning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

FAO'ning Irrigation in Central Asia in Figures (2012) tadqiqotida mintaqada qishloq xo'jaligi asosan irrigatsiyaga tayanishi ta'kidlanadi. O'zbekiston va Turkmanistonda ekin maydonlarining katta qismi sug'oriladigan yerlar bo'lib, suvdan foydalanish umumiy hajmning 80 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Natijada, tarmoq tarkibida paxta va g'alla yetakchi ekinlarga aylangan, biroq irrigatsiya samaradorligi pastligi (o'rtacha 47%) barqarorlik muammolarini yuzaga keltirmoqda. FAO (2013) tomonidan tayyorlangan Conservation Agriculture in Central Asia hisobotida esa Qozog'istonda resurs tejankor texnologiyalar, xususan no-till usullarining joriy etilishi g'allachilik tarmog'ida samaradorlikni oshirgani qayd etiladi. Bu yangiliklar sektor tarkibini bosqichma-bosqich muvozanatlashtirish imkonini bermoqda.

Jahon bankining O'zbekistonga oid tahlillari (2020) paxta-g'alla ulushining yuqoriligi iqtisodiy samaradorlikni pasaytirayotganini ko'rsatadi. Tadqiqotda bog'dorchilik va sabzavotchilikning bir gektar qiymati an'anaviy ekinlarga nisbatan bir necha baravar yuqori ekani ta'kidlanib, diversifikatsiya zarurligi asoslab berilgan. From Root to Fruit dasturi doirasidagi amaliyotlar esa bog'dorchilik tarmog'ida hosildorlik 25–30% oshgani, qiymat zanjirlari va logistika tizimlari rivojlangani natijasida sektor tarkibida yangi “drayver” paydo bo'lganini ko'rsatadi (World Bank, 2025).

Qozog'istonda chorvachilik tarmog'i yetakchi o'rin tutadi. FAO (2010) va Jahon bankining Kazakhstan Sustainable Livestock Development dasturi (2020) keng yaylov resurslari hisobidan go'sht-sut tarmoqlarini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi. Qirg'izistonda esa chorvachilik tarmog'ida mahsuldorlik pastligi yem bazasi, veterinariya xizmati va yaylov boshqaruvi muammolari bilan izohlanadi. Bu holat chorvachilikning tarmoq tarkibidagi ulushini samarali kengaytirish uchun institutsional islohotlarni talab qiladi.

Tojikistonda IFPRI (2024) tadqiqoti irrigatsiya tizimiga yuqori qaramlikni ko'rsatadi: ekin maydonlarining 85 foizi sug'oriladigan yerlardan iborat bo'lib, hosil qiymatining 90 foizidan ortig'i shu yerda yaratiladi. Biroq suv infratuzilmasidagi muammolar va kam daromadli ekinlarga tayanish tarmoq tarkibini quyi qiymatli mahsulotlarga yo'naltirib

qo'ygan. Chorvachilikda esa yem va veterinariya xizmatlari samaradorligini oshirish zaruriyati qayd etilgan.

Mintaqaviy integratsiya nuqtayi nazaridan, ADB (2019) va CAREC (2021) hisobotlari qishloq xo'jaligining qiymat zanjirlari bo'yicha o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, savdoda raqamli tizimlardan (masalan, e-Phytosanitary) foydalanish yuqori qiymatli tarmoqlar — bog'dorchilik va qayta ishlangan chorvachilik mahsulotlari ulushini oshirish imkonini berishini ko'rsatadi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston kabi Markaziy Osiyo davlatlarida ham qishloq xo'jaligi sektorining tuzilmasi murakkab bo'lib, u o'simlikchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va baliqchilik kabi bir nechta kichik tarmoqlardan iborat. Bu tarmoqlar aholi bandligining katta qismini tashkil qiladi hamda ichki bozorni mahsulot bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, agroklimatik sharoitlarning xilma-xilligi, yer va suv resurslarining chegaralanganligi sektorni chuqur isloh qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tarmoq tarkibi va resurslardan foydalanishga to'xtalsak, hududlar o'rtasidagi farqlarga qaramay, qishloq xo'jaligi barcha davlatlar uchun muhim tarmoq hisoblanadi. Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekistonda qishloq xo'jaligining YalMdagi ulushi yuqori. Markaziy Osiyoda aholining 60 %dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi. Turkmaniston va O'zbekistonda haydaladigan yerlarning 80 %dan ortig'i sug'oriladigan bo'lib, bu yerda sug'orishga iqlim sharoiti sababli kuchli ehtiyoj bor. Qozog'iston keng yer maydonlariga ega bo'lib, asosiy e'tibor don yetishtirishga qaratilgan (Lerman, 2013).

Fermer xo'jaliklarining tuzilmasi bo'yicha davlatlar o'rtasida farq mavjud bo'lib, Qozog'istonda yirik donchilik korxonalari saqlanib qolgan bo'lsa, Qirg'iziston va Tojikiston kichik va oilaviy fermerlik tizimiga to'liq o'tgan. Kichik fermer xo'jaliklari ko'pincha yer unumdorligi bo'yicha yirik korxonalardan ustun kelmoqda. Bu shaxsiy rag'batlar, byurokratik to'siqlarning kamayishi va mehnatni nazorat qilish xarajatlarining pastligi bilan bog'liq.

Tadqiqotchilar Insa Theesfeld va Frederike Klümper, "[Interplay between structural change in Central Asian agriculture and institutional scarcity of land and water: Evidence from Tajikistan](#)", tadqiqot ishida Tojikistonda qishloq xo'jaligida yer va suv resurslarining cheklanganligi asosiy tarkibiy o'zgarishlarga olib kelmoqdaligini o'rganib, ushbu o'zgarishlar uchta asosiy yo'nalishda yuz berishini ko'rsatishadi:

1. Yer va suv o'rtasidagi bog'liqlik – qishloq xo'jaligi uchun ikkita asosiy resurs sifatida ularning taqsimoti va ularga egalik huquqlari muhim. Bu resurslar o'rtasidagi bevosita va bilvosita aloqalar mulk huquqlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

2. Resurslar tanqisligi natijasida yuzaga kelgan tarkibiy o'zgarish – resurslar, ayniqsa sug'oriladigan yerlar yetishmasligi yangi fermalar tashkil etilishi va ishlab chiqarish shakllarining o'zgarishiga olib kelmoqda.

3. Tarkibiy o'zgarishlar resurslarga bosimni kuchaytirishi – yirik investorlarning kirib kelishi, yangi yer foydalanish shakllari, va eski irrigatsiya tizimlarining kichik fermerlar ehtiyojlariga javob bermasligi natijasida, suvga de-fakto egalik huquqlari yanada murakkablashmoqda (Theesfeld, & Klümper, 2016).

Muammo nafaqat fiziologik tanqislik, balki institutsional tanqislikda hamdir. Tojikistonda yer huquqlarini olish jarayoni murakkab va xarajatli bo'lib, bu qishloq xo'jaligidagi yangi ishtirokchilar uchun to'siq bo'lib qolmoqda. Suv resurslari jismonan mavjud bo'lsa-da, unga bo'lgan amaldagi kirish huquqi barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng emas. Ushbu holatlar Tojikistonda qishloq xo'jaligining tarmoq tuzilmasini bevosita shakllantiradi va butun Markaziy Osiyo mintaqasida o'xshash muammolarni yuzaga chiqaradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tabiiy boyliklari va siyosatlariga ko'ra turli ixtisoslashuvga ega. Jumladan, Qozog'iston qishloq xo'jaligida yirik miqyosdagi don yetishtirish ustunlik

qiladi, 20 million gektardan ortiq yer bug'doyga ajratilgan. Mamlakat Afg'oniston va Eron kabi qo'shni davlatlarga eksport qiladi.

1-jadval

Qozog'iston qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik faoliyatlari bo'yicha mahsulotlar (xizmatlar) yalpi hajmi

Faoliyat turi	million teng	2024-yildagi fizik hajm indeksi (PVI), 2023-yilga nisbatan (%)
Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik (umumiy)	8 363 603,2	113,6
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida xizmatlar	8 312 682,3	113,7
Ovchilik va tuzoq qurish, shu jumladan bu sohalarida xizmat ko'rsatish	1 699,7	102,8
O'rmon xo'jaligi va yog'och tayyorlash	23 118,8	88,7
Baliq ovlash va baliq yetishtirish	27 802,1	110,4

Manba: Qozog'iston rasmiy statistika sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Statistics of agriculture, forestry, hunting and fisheries - Agency for Strategic planning and reforms of the Republic of Kazakhstan Bureau of National statistics.

Ushbu jadvalda 2024-yilda Qozog'istonda qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik faoliyatlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning yalpi qiymati (million teng hisobida) hamda 2023-yilga nisbatan o'sish yoki pasayishni ifodalovchi Ishlab chiqarish hajmi indeksi (PVI) keltirilgan. Ma'lumotlar Qozog'istonning asosiy tarmoqlari bo'yicha iqtisodiy hissani aks ettiradi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishini foizda ifodalaydi.

PVI > 100% — o'sishni bildiradi

PVI < 100% — pasayishni bildiradi

Shu asosda, qishloq xo'jaligi (113,7%) – 2024 yilda ishlab chiqarish hajmi 2023 yilga nisbatan 13,7% ga oshgan. O'rmon xo'jaligi (88,7%) – ishlab chiqarish 11,3% ga kamaygan bo'lishi mumkin (masalan, yog'och tayyorlash kamaygani sababli).

Tarmoq bo'yicha tafsilotlar quyidagicha bo'lib, Dehqonchilik va chorvachilik (Qishloq xo'jaligi tarmog'i) Yalpi mahsulot hajmida 8 310 982,6 million teng ni tashkil qilgan va tarmoqlar orasida 99,37% bilan eng kata ulushni tashkil qiladi. O'sish sur'ati (PVI) - 113,7% tashkil qilgan, ya'ni 2023-yilga nisbatan 13,7% o'sish bo'lgan. Ushbu tarmoq Qozog'iston qishloq xo'jaligining asosiy va yetakchi yo'nalishi hisoblanadi. Uning tarkibida g'alla yetishtirish (masalan, bug'doy, arpa) hamda chorvachilik (mol, qo'y boqish) asosiy o'rin tutadi. Tarmoqdagi yuqori o'sish sur'ati ishlab chiqarish samaradorligi oshgani yoki qulay bozor sharoitlari shakllanganidan dalolat beradi.

2-jadval

2020–2024-yillarda Qozog'istonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Yil	Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	Go'sht (so'yilgan vaznda), ming tonna	Sut, ming tonna	Tuxum, mln dona	Jun, ming tonna	Qorako'l terisi, ming dona
2020	2 058,5	1 168,6	6 051,4	5 065,8	40,2	1,3
2021	2 162,2	1 231,1	6 247,2	4 838,1	41,2	2,1
2022	1 799,1	1 044,7	3 354,6	4 526,7	35,6	0,5
2023	1 920,3	1 120,0	3 472,9	4 420,6	36,6	0,3
2024	1 994,9	1 168,7	3 628,5	4 478,1	36,3	0,2

Manba: Qozog'iston rasmiy statistika sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Statistics of agriculture, forestry, hunting and fisheries - Agency for Strategic planning and reforms of the Republic of Kazakhstan Bureau of National statistics.

2-jadvalga ko'ra, 2020-2021-yillarda Qozog'istonda chorvachilik mahsulotlarida barqaror o'sish kuzatilgan, ayniqsa sut va go'sht ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lgan. 2022-yilda keskin pasayish yuz bergan (maxsus statistik qayta hisob-kitob natijasida), bu esa aholi xo'jaliklaridagi ma'lumotlarning yangilanishi bilan bog'liq. 2024-yilda oz miqdorda tiklanish kuzatilmoqda, ammo hali ham 2021-yil darajasiga yetmagan.

Baliq ovlash va baliq yetishtirish yalpi mahsulot hajmi 27 802,1 million tengge, umumiy ulushi 0,33% bo'lib, mazkur tarmoq hozircha kichik hajmda faoliyat yuritib-da, barqaror o'sish sur'ati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, akvakultura (baliq yetishtirish) yo'nalishining rivojlanayotgani va eksport salohiyatining oshib borayotgani bunga sabab bo'lishi mumkin. Bu tarmoqni iqtisodiy diversifikatsiya imkoniyati sifatida baholash mumkin.

O'rmon xo'jaligi va yog'och tayyorlash, yalpi mahsulot hajmi 23.118,8 million tengge, umumiy ulushi 0,28%, o'sish sur'ati (PVI) 88,7% (ya'ni 11,3% pasayish). Qozog'iston qishloq xo'jaligi tarmoqlari ichida yagona pasaygan tarmoq hisoblanadi. Bu holat ekologik siyosatlar, yog'ochdan foydalanishdagi cheklovlar yoki bozor talabining kamayganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3-jadval

2020-2024-yillarda asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari bo'yicha yalpi hosil (ming tonna)

Yil	Don va dukkakli (shu jumladan guruch)	Yog'li ekinlar urug'i	Shu jumladan: kungaboqar urug'i	Kartoshka	Sabzavotlar (ochiq va yopiq)	Poliz ekinlari	Shakar lavlagi
2020	20 065,3	2 556,5	844,3	4 006,8	4 590,9	2 425,1	466,3
2021	16 375,9	2 430,1	1 031,8	4 031,6	4 768,5	2 778,6	332,2
2022	22 030,5	3 051,3	1 304,3	4 080,5	4 792,6	2 560,3	305,7
2023	17 096,6	2 183,8	1 236,4	2 046,8	4 425,9	2 806,7	510,2
2024	25 204,8	3 337,6	1 834,4	2 634,6	3 781,0	2 465,8	1 268,8

Manba: Qozog'iston rasmiy statistika sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Statistics of agriculture, forestry, hunting and fisheries - Agency for Strategic planning and reforms of the Republic of Kazakhstan Bureau of National statistics.

3-jadvalga asosan, don ekinlari (25,2 mln tonna) va yog'li ekinlar 2024 yilda rekord darajada o'sgan. Kartoshka va sabzavotlar bo'yicha 2023 yildagi keskin pasayishdan keyin 2024 yilda tiklanish boshlangan. Shakar lavlagi hosili 2024-yilda to'rt barobardan ko'p o'sgan (1268,8 ming tonna), bu ehtimol yangi texnologiyalar yoki subsidiyalar bilan bog'liq. Kungaboqar urug'i ishlab chiqarish ham doimiy o'sishda.

Qozog'istonda, don ekinlari va sut mahsulotlari qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari sifatida ajralib turibdi. Paxta, mevali ekinlar, qo'y va echkichilik kabi tarmoqlarda mahsulot ulushi kam bo'lib, ular uchun alohida davlat dasturlari zarur.

4-jadval

Qozog'istonda qishloq xo'jaligida tashkiliy shakllar bo'yicha taqsimot

Tashkiliy shakl	Yalpi mahsulot (mln tengge)	PVI (%)	Ulushi (%)
Qishloq xo'jaligi korxonalari	2 889 454,5	138,3	34,8
Fermerlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	2 685 667,1	111,0	32,3
Aholi xonadonlari	2 734 881,0	97,1	32,9

Manba: Qozog'iston rasmiy statistika sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Statistics of agriculture, forestry, hunting and fisheries - Agency for Strategic planning and reforms of the Republic of Kazakhstan Bureau of National statistics.


4-jadvalda, korxona sektori eng tez o'sgan (PVI 138,3%), bu texnologik modernizatsiya yoki subsidiyalar natijasi bo'lishi mumkin. Aholi xonadonlari sektorida pasayish bor (PVI 97,1%), bu kichik fermer xo'jaliklarining sustlashayotganini bildiradi.

2024-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qozog'istonda qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i dehqonchilik bo'lib, ayniqsa don ekinlari sezilarli darajada o'sdi (PVI 151,9%). Bu holat ushbu yo'nalishning ichki bozor va eksportdagi talabga javob bera olishini hamda texnologik takomillashuv davom etayotganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari esa eng tez rivojlanayotgan tashkiliy shakl sifatida ajralib turibdi (PVI 138,3%). Bu esa davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalar, kreditlar va investitsiyalarning amaliy natijasi sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, aholi sektorida (ya'ni kichik fermer xo'jaliklarida) o'sish sur'atining pasaygani (PVI 97,1%) ushbu sohaning zaiflashib borayotganini va tizimli qo'llab-quvvatlashga muhtojligini anglatadi.

Chorvachilik tarmog'i nisbatan barqaror o'sish ko'rsatgan bo'lsa-da, qo'y-echki va parranda yetishtirishda o'sish sur'atlari past. Bu esa ushbu yo'nalishlarda salohiyat yetarlicha foydalanilmayotganini bildiradi. Shuningdek, meva-sabzavot yetishtirish va ko'p yillik ekinlar sektorida ham past o'sish kuzatilmoqda. Bu tarmoqlarda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va qo'shimcha rag'batlantiruvchi choralarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi bir vaqtlar faqat paxtaga ixtisoslashgan bo'lsa, endi oziq-ovqat ta'minotini mustahkamlash uchun bog'dorchilik va bug'doychilikka e'tibor qaratmoqda.



1-rasm. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibi (2023)

Manba: uz.stat milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu taqsimot diagrammasi orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy tarkibidagi nisbiy ulushlarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Asosiy mahsulot turlari va ularning ulushi:

- Donli ekinlar (bug'doy, arpa, sholi) - taxminan 25-30%
- Sabzavotlar va poliz ekinlari (kartoshka, pomidor, bodring) - 15-20%
- Mevalar va uzum (olma, uzum, shaftoli) - 10-15%
- Go'sht mahsulotlari (qoramol, qo'y, tovuq go'shti) - 20-25%
- Sut mahsulotlari va tuxum - 10-12%
- Boshqa mahsulotlar (asal, pillakashlik, jun) - 5-10%

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, donli ekinlar va chorvachilik mahsulotlari qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lib, ular umumiy mahsulot tarkibining yarmidan ko'pini (50%+) tashkil etadi. Sut va tuxum kabi mahsulotlar nisbatan kichikroq ulushga ega bo'lsa-da, aholining oziq-ovqat talabini qondirishda muhim o'rin tutadi. Mevalar va sabzavotlar eksport salohiyati yuqori bo'lgan mahsulotlar hisoblanadi. Bu tahlil shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Har bir tarmoqning

o'ziga xos salohiyati va rivojlanish istiqbollari mavjud. Ulardan samarali foydalanish uchun har bir yo'nalish bo'yicha alohida strategiyalar ishlab chiqish zarur.

5-jadval

2024-yil uchun asosiy ekinlar hosili – soddalashtirilgan ko'rinish (tonna)

Hudud nomi	Donli ekinlar	Sabzavot	Poliz	Kartoshka	Meva	Uzum
Qoraqalpog'iston	345 542	349 479	189 987	101 678	73 557	14 409
Andijon	722 914	1 833 664	214 221	456 630	699 858	83 754
Buxoro	676 647	931 762	210 826	268 662	316 511	232 357
Jizzax	735 245	491 741	326 163	111 060	100 191	33 039
Qashqadaryo	893 524	597 259	209 561	205 158	186 510	112 734
Navoiy	266 166	353 963	107 365	92 916	112 038	90 593
Namangan	735 074	1 047 906	150 474	361 969	395 156	160 764
Samarqand	903 247	1 577 555	169 921	747 573	401 802	666 142
Surxondaryo	788 050	1 209 797	351 504	373 225	190 557	91 072
Sirdaryo	578 433	323 044	314 596	72 026	48 825	15 521
Toshkent viloyati	631 829	1 195 819	75 355	387 287	131 803	84 523
Farg'ona	998 457	1 410 507	190 980	386 457	436 339	189 395
Xorazm	580 102	672 295	172 685	152 198	178 053	51 470
Toshkent shahri	0	0	0	0	0	0
Jami (O'zbekiston)	8 855 230	11 994 791	2 683 638	3 716 839	3 271 200	1 825 773

Manba: ushbu jadval ma'lumotlari statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida. <https://stat.uz/> elektron sahifa.

5-jadvalga ko'ra, donli ekinlar bo'yicha yetakchilar, Farg'ona viloyati (998 ming tonna) va Qashqadaryo viloyati (893 ming tonna) eng ko'p donli ekin yetishtirgan hududlar hisoblanadi. Sabzavot yetishtirishda, Andijon viloyati (1,83 mln tonna), Farg'ona va Samarqand viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Bu hududlarda intensiv sabzavotchilik tizimi rivojlangan bo'lib, issiqxona texnologiyalari ham keng joriy etilgan. Poliz ekinlari bo'yicha, Surxondaryo viloyati (351 ming tonna) va Jizzax (326 ming tonna) viloyatlari ajralib turadi. Poliz ekinlari iqlimga moslashgan va eksport uchun qulay hisoblanadi. Kartoshka yetishtirish bo'yicha eng ko'p hosil Samarqand viloyatida (747 ming tonna) va Andijon viloyatida (456 ming tonna) olingan. Bu hududlar kartoshkachilikning intensiv shakllarini qo'llashda oldinda borayotganini ko'rsatadi. Meva yetishtirishda, Farg'ona viloyati (436 ming tonna), Samarqand va Andijon viloyatlari yuqori ko'rsatkichlarga ega. Bu hududlar meva-sabzavot klasterlarining faoliyati bilan ham bog'liq. Uzum yetishtirishda, Samarqand viloyati (666 ming tonna) bu sohada yetakchi. Bu uzumchilik an'anasi, agroiklim sharoiti va eksport salohiyatining yuqoriligini bildiradi. Toshkent shahrida ma'lumotlar yo'qligi uni hududiy qishloq xo'jaligida ishtirok etmayotganini ko'rsatadi.

6-jadval

Umumiy yakuniy ko'rsatkichlar asosiy ekinlar hosilida (O'zbekiston bo'yicha)

Ko'rsatkich	Donli ekinlar	Sabzavotlar	Poliz ekinlari	Kartoshka	Mevalar	Uzum
Yalpi hosil (tonna)	8,855,230	11,994,791	2,683,638	3,716,839	3,271,200	1,825,773

Manba: ushbu jadval ma'lumotlari statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida. <https://stat.uz/> elektron sahifa.

Sabzavot yetishtirish eng yuqori ulushga ega bo'lib, O'zbekiston agrar sohasida daromadli va eksportga yo'naltirilgan segment hisoblanadi. Kartoshka, meva va uzum

sektorlari ham barqaror o'sishda, bu oziq-ovqat xavfsizligi va sanoatni xomashyo bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 202,7 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4,2 foizga o'sish kuzatildi. 2023-yilda dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'ati 104,2 foizni tashkil etgan. Bunga 2023-yilda yetishtirilgan paxta xomashyosining o'sish sur'ati 2022-yilga nisbatan 106 foizga ancha yuqori bo'lganligi, 2022-yilda esa 2021-yilga nisbatan paxtaning o'sish sur'ati 103,8 foizni tashkil etgan.

Mamlakatimiz aholisini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish, bozorlarda mahsulotlar narxlari barqarorligini ta'minlash hamda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 7,4 trln so'mlik 2 145 ta loyihalar amalga oshirilib, ushbu loyihalar doirasida chetdan 135 ming bosh qoramol, 228 ming bosh qo'y va echkilar olib kelindi. Naslchilik ishlarini rivojlantirish maqsadida 2,4 mln bosh sigir va tanalar sun'iy urug'lantirildi hamda nasli yaxshilangan qoramollar ulushi 72 foizga yetkazildi. Chorva ozuqa bazasini mustahkamlash uchun 430,7 ming gektar ozuqa maydonlarning 70,2 ming gektarga yangi beda (98,6 ming gektar eski beda mavjud), 210,3 ming gektarga silos uchun makkajo'xori, 37,9 ming gektarga oq jo'xori, 13,5 ming gektarga xashaki lavlagi, 90,2 ming gektarga kuzgi oraliq ozuqa ekinlari ekildi. 2023-2024-yil chorva qishlovini betalofat o'tkazish maqsadida jami 26 mln tonna dag'al va shirali ozuqalar jamg'arildi¹.

7-jadval

O'zbekistonda asosiy chorvachilik mahsulotlar hajmi (2019-2023)

Yil	Go'sht (ming tonna)	Sog'ib olingan sut (ming tonna)	Tuxum (million dona)	Pillachilik (tonna)	Jun yetishtirish (tonna)	Asal yetishtirish (tonna)
2019	2473.6	10714.3	7771.2	21374.1	35115	13002.0
2020	2319.6	10976.9	7781.2	20941.9	35422	13357.8
2021	2655.1	11274.2	7784.4	22769.9	36345	14066.9
2022	2726.0	11629.4	8129.3	24300.2	37269	14698.4
2023	2883.3	11968.7	8487.5	25685.7	38639	15620.6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi yillik hisoboti 2023-yil.

2019-2023-yillarda O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishida barqaror o'sish kuzatildi. Jumladan, go'sht ishlab chiqarish 2473,6 ming tonnadan 2883,3 ming tonnaga, sut hajmi esa 10714,3 ming tonnadan 11968,7 ming tonnaga oshdi. Tuxum, pillachilik va asal yetishtirish hajmlarida ham izchil o'sish qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlar chorvachilik tarmog'ida samaradorlikning ortib borayotganini, fermer xo'jaliklari va aholi tomorqalarining ishlab chiqarish salohiyati yildan-yilga kuchayayotganini ko'rsatadi. Bu esa tarmoqning oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi jadvallar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, O'zbekistonda eksport imkoniyatlari sut va asal kabi yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish orqali samarador bo'ladi (Vokhidova, Abdullaeva, 2024). Zamonaviy texnologiyalar joriy qilish orqali, pillachilik va jun yetishtirishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. 2020-yil tajribasi, ya'ni pandemiya davridagi go'sht ishlab chiqarishning pasayishi chorvachilikni diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda o'rmon xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi 10 399,5 milliard so'mni, 2022-yilga nisbatan 2,7 foizga o'sdi. Respublikamizda davlat o'rmon fondi yerlari 11 144,5 ming

¹ <https://stat.uz>

gektarni, shundan o'rmonzorlar 3 435,7 ming gektarni tashkil etib, ularda 53 ming gektar sug'oriladigan maydonlar mavjud. O'rmon xo'jaligi faoliyati tabiiy o'rmonlar yoki sun'iy o'rmonzorlar doirasida amalga oshiriladi. Hozirda o'rmon xo'jaligi mahsulotlariga yog'och tayyorlash, o'rmon xo'jaliklari tomonidan odamlar yoki hayvonlar uchun oziq-ovqat, shuningdek, boshqa foydalanish maqsadlarida dorivor yoki kosmetik o'simliklar sifatida yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar hisobga olinib kelinmoqda. Baliqchilik tarmog'ida 2023-yilda suv bilan bog'liq muammolarga qaramasdan, ovlangan baliq miqdori o'tgan yilgidan 7,4 foizga ko'payib, 198,9 ming tonnani tashkil etdi. Ovlangan baliqning asosiy 49,6 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan, 45,2 foizi baliq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan. Ovlangan baliqlarning aholi jon boshiga 5,4 kg dan to'g'ri keldi. Intensiv usulda sovuq suv baliqlarini (forel, losos, osyotr) yetishtiruvchi xo'jaliklar soni 20 taga yetkazildi va yillik o'rtacha 5 ming tonna baliq yetishtirilmoqda. Baliqchilik xo'jaliklarini chavoq baliqlari bilan to'liq ta'minlash uchun 286 ta xo'jaliklardagi 7,3 ming gektar reproduktor havzalarida 482 million dona baliq chavoqlari yetishtirish yo'lga qo'yildi.

Qirg'iziston va Tojikistonda tog'li relyef qishloq xo'jaligi yerlarini cheklab qo'yadi, lekin chorvachilik va bog'dorchilikni rivojlantirishga imkon beradi.

9-jadval

Qirg'izistonda asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishi (2020–2024) [13]

Mahsulot nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Don (qayta ishlangandan so'ng)	1 856,0	1 329,1	1 867,3	1 623,8	2 085,5
Bug'doy	629,1	362,7	592,5	440,4	664,8
Arpa	510,2	274,1	539,6	382,1	611,1
Makkajo'xori	714,1	691,1	732,6	799,9	805,3
Guruch	44,5	46,3	44,2	46,8	48,1
Dukkaklilar (jumladan loviya)	107,2	85,5	80,7	72,3	78,6
Shakar qand lavlagi	448,8	365,6	468,1	621,0	957,4
Paxta	72,8	66,9	76,5	63,5	46,3
Tamaki	1,0	1,1	1,2	1,4	1,0
Yog' olinadigan ekinlar	23,9	17,8	19,7	15,3	18,4
Kartoshka	1 327,2	1 289,1	1 275,0	1 286,8	1 190,2
Sabzavotlar	1 131,2	1 114,1	1 163,6	1 216,6	1 227,5
Poliz ekinlari	261,5	224,9	226,1	235,6	280,9
Mevalar va rezavorlar	278,0	266,4	275,5	278,9	346,2
Uzum	9,3	7,4	7,3	5,1	6,0
Go'sht (so'yish vaznida)	230,4	235,0	248,3	252,5	252,9
Sut	1 668,0	1 698,9	1 734,1	1 777,6	1 823,8
Tuxum (mln dona)	562,0	564,2	607,9	685,7	790,3
Jun	13,1	13,1	12,9	12,9	13,1

Manba: <https://stat.uz/> rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Qirg'izistonda oxirgi 5 yillikda, don mahsulotlari ishlab chiqarish barqaror o'sdi. 2020-yildagi 1,85 mln tondan 2024-yilda 2,08 mln tonnaga yetdi. Ayniqsa, arpa va makkajo'xori yetishtirishda sezilarli o'sish kuzatildi. Shakar lavlagi ishlab chiqarish 2020-yildan 2024-yilgacha ikki baravarga oshdi (448 ming t → 957 ming t), bu soha faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Sabzavot va meva mahsulotlari ishlab chiqarish barqaror o'sib bormoqda. Masalan,

meva va rezavorlar 2020-yildan 2024-yilgacha 278 ming t → 346 ming tonnaga oshdi. Go'sht, sut, tuxum ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshmoqda. Ayniqsa tuxum ishlab chiqarish 2020-yildan 2024-yilgacha 562 mln donadan 790 mln donagacha ko'paydi. Paxta, tamaki va yog' olinadigan ekinlar ishlab chiqarishda pasayish tendensiyasi mavjud. Bu mahsulotlarga talab yoki davlat siyosati o'zgarayotganini bildiradi.

2020–2024 yillar davomida Qirg'iziston Respublikasi qishloq xo'jaligi sektori bir qator muhim sohalarda barqaror o'sishni namoyon etdi. Jumladan:

- Don, sut, tuxum, sabzavot, meva va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish ko'paygan;
- Yog' olinadigan ekinlar, paxta va tamaki kabi qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida qisqarish kuzatilmoqda;
- Bu esa ichki bozor ehtiyojlari, tashqi savdo talablari, agroiklimiy sharoit va davlat siyosati ta'sirida shakllanayotganini ko'rsatadi.

10-jadval

Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarishi (mln. so'm, 2020–2024)

Yil	2020	2021	2022	2023	2024*
Mahsulot hajmi (mln. so'm)	249 534,7	324 535,6	358 324,2	382 036,6	395 637,1

Manba: Qirg'iziston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://www.stat.gov.kg/>.

Qirg'izistonda oxirgi 5 yillikda qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarishida barqaror o'sish tendensiyasi mavjud. 2020-yildan 2024-yilgacha ishlab chiqarish hajmi ~146 ming mln. so'mga oshgan (59% o'sish). 2021-yilda 2020-ga nisbatan ishlab chiqarish hajmi 30% dan ortiq oshgan. Bu pandemiyadan keyingi iqtisodiy faollikning tiklanishini bildiradi. 2022–2024-yillarda o'sish sur'ati biroz sekinlashgan, lekin ijobiy dinamikada davom etmoqda. 2023–2024 yillarda 13 ming mlrd. so'mlik o'sish kuzatilgan (faqat 3,5%), bu esa narxlar stabillashuvi yoki hosildorlik o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umumiy iqtisodiy hajm yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa sektorning yalpi ichki mahsulotdagi o'rning saqlanib qolayotganini yoki kuchayayotganini ko'rsatadi.

Tojikiston statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Tojikiston Respublikasining qishloq xo'jaligi sohasida barqaror o'sish sur'atlari kuzatildi. Umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 73,98 trillion somoniyni tashkil etib, o'sish sur'ati 10,6 foizni tashkil qildi. Bu esa sohada amalga oshirilayotgan samarali islohotlar va yer resurslaridan oqilona foydalanish natijasidir. Ekinchilik yo'nalishida ishlab chiqarish hajmi 13,4% ga, chorvachilikda esa 4,8% ga oshdi. Asosiy mahsulotlar bo'yicha yuqori o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi: g'alla – 4,2%, kartoshka – 10,4%, sabzavot – 8,7%, poliz mahsulotlari – 13,4%, mevalar – 23,9%, uzum – 1,5 baravar, yem-xashak – 2 baravar. Ushbu raqamlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega².

Ishlab chiqarishda aholining shaxsiy tomorqa xo'jaliklari hal qiluvchi rol o'ynadi – ularning ulushi 50,4%ni tashkil etdi. Hududlar kesimida GBAO (65,1%), Xatlon (57,1%) va Respublika bo'ysunuvidagi hududlar (51,6%) yetakchi o'rinda bo'ldi³. Mazkur ko'rsatkichlar Tojikistonning qishloq xo'jaligi sektori ichki ehtiyojlarni qondirish bilan birga, eksport salohiyatini ham oshirish imkoniga ega ekanligini anglatadi. Kelgusida resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy yondashuvni kuchaytirish orqali bu rivojlanish barqaror davom ettirilishi mumkin.

² Qirg'iziston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

³ www.stat.tj.

Turkmanistonda esa paxta va bug'doy yetishtirish davlat tomonidan boshqariladi, sug'orish uchun Amudaryo suvlariga tayaniladi.

Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligining barqarorligi suv resurslari, iqlim o'zgarishi va infratuzilmaga bog'liq. Suv resurslari va sug'orish. Amudaryo va Sirdaryo daryolari mintaqqa qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, eskirgan sug'orish tizimlari suv tanqisligiga olib kelmoqda. Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarga, haroratning oshishi va cho'llanish qishloq xo'jaligiga jiddiy tahdid solmoqda. Texnologik va infratuzilma cheklavlari - zamonaviy sug'orish usullari qimmatligi sababli keng tarqalmagan.

Xulosa va takliflar.

Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi tarmoqlari har xil bo'lib, har bir mamlakat o'z afzalliklaridan foydalanmoqda. Biroq, suv tanqisligi va infratuzilma muammolarini hal qilish uchun mintaqaviy hamkorlik zarur. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslarni tejash va hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirish orqali qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Har bir mamlakatning tarmoq tarkibi o'zining tabiiy resurslari va davlat siyosatiga bog'liq holda shakllanmoqda. Misol uchun, O'zbekiston paxta yetishtirishdan asta-sekinlik bilan voz kechib, yuqori daromad keltiradigan meva-sabzavot mahsulotlariga o'tmoqda. Bu yo'nalishda issiqxona xo'jaliklari, logistika tizimlari va eksport zanjirlari rivojlantirilmoqda. Qozog'istonda esa, bug'doy ishlab chiqarish bilan bir qatorda chorvachilik sohasida genetika, sog'lomlashtirish va go'shtni qayta ishlash tizimlariga investitsiyalar kiritilmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston esa kichik fermer xo'jaliklari, kooperatsiya va tog'li hududlarda samarali suv resurslaridan foydalanish orqali ixtisoslashmoqda.

Barcha mamlakatlar uchun umumiy muammo - iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va texnologik eskirganlik. Ayniqsa, sug'oriladigan yerlar salmog'i yuqori bo'lgan O'zbekiston va Tojikiston uchun suv resurslarini samarali boshqarish dolzarbdir. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlar muhim sanaladi:

- suvni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy qilish (drip irrigation, lazerli tekislashtirish);

- fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustahkamligini ta'minlash;

- qayta ishlash sanoatini rivojlantirish;

- ichki va tashqi bozorlarga kirishni osonlashtirish.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi tarmoq tarkibi tarixiy, geografik va siyosiy omillar ta'sirida shakllangan. Bugungi kunda ushbu tarmoqni diversifikatsiyalash, samaradorlikni oshirish va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali mintaqqa oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini mustahkamlashi mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

AQSH qishloq xo'jaligi vazirligi, (2023)

Asian Development Bank (ADB) & CAREC Institute. (2019). *Agriculture Development in the CAREC Countries: Review of Trends, Challenges, and Opportunities*. Manila: ADB.

Asian Development Bank (ADB). (2021). *Digital Phytosanitary Certification in CAREC: Opportunities for Agricultural Trade*. ADB Brief No. 184. Manila: ADB.

Diao, Xinshen & Hazell, Peter & Thurlow, James. (2010). *The Role of Agriculture in African Development*. *World Development*. 38. 1375-1383. 10.1016/j.worlddev.2009.06.011.

Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2012). *Irrigation in Central Asia in figures – AQUASTAT Survey 2012*. Rome: FAO.

Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2013). *Conservation Agriculture in Central Asia: Status, Policy, Institutional Support and Strategic Framework for Its Promotion*. Rome: FAO.

Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2010). *Highlights on four livestock sub-sectors in Kazakhstan*. Rome: FAO.

International Food Policy Research Institute (IFPRI). (2024). *Tajikistan Agrifood Sector Review: Building Resilience and Productivity*. Washington, DC: IFPRI.

Lerman, Z. (2013). *Structure and Performance of Agriculture in Central Asia*.

O'zbekiston Respublikasi statistika ko'mitasi ma'lumotlaridan <https://stat.uz/> elektron sahifa. 2023-yil yillik hisobot asosida tayyorlandi.

Rohne Till, Emelie. (2022). *The Role of Agriculture in Economic Development*. 10.1007/978-3-031-07901-6_2.

Theesfeld, I., & Klümper, F. (2016). *Interplay between structural change in Central Asian agriculture and institutional scarcity of land and water: Evidence from Tajikistan*. *Zeitschrift für Wirtschaftsgeographie*, 60(1-2), 81-96.

Vokhidova, M.K., Abdullaeva, A.R. (2024). *Directions of Trade Relations of Uzbekistan with the Countries of Central Asia*. In: Sergi, B.S., Popkova, E.G., Ostrovskaya, A.A., Chursin, A.A., Ragulina, Y.V. (eds) *Ecological Footprint of the Modern Economy and the Ways to Reduce It. Advances in Science, Technology & Innovation*. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-49711-7_76

World Bank. (2012). *Kyrgyz Republic: Livestock Sector Review – Embracing the New Challenges*. Washington, DC: World Bank.

World Bank. (2020). *Uzbekistan: Agricultural Growth Assessment and Forecast*. Washington, DC: World Bank.

World Bank. (2025). *From Root to Fruit: Growing the Horticulture Sector in Uzbekistan. Project Results Brief*. Washington, DC: World Bank.